

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI**

**KENJAYEV FARXOD IKRAM O‘G‘LI**

**ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK ROMANLARIDA  
JALOLIDDIN MANGUBERDI OBRAZINING BADIY TALQINLARI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti  
(filologiya fanlari)**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Content of Dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)  
on Philological sciences**

**Kenjayev Farxod Ikram o'g'li**

Istiqlol davri o'zbek romanlarida Jaloliddin Manguberdi obrazining  
badiiy talqinlari ..... 3

**Kenjaev Farkhod Ikram ugli**

Literary Interpretations of the Image of Jaloliddin Manguberdi  
in Uzbek Novels of the Independence Period ..... 25

**Кенжаева Фархода Икрам угли**

Художественные интерпретации образа Джалалиддина Мангуберди  
в узбекских романах периода независимости ..... 47

**E'lon qilingan ishlar ro'yhati**

List of published works  
Список опубликованных работ ..... 52

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI**

**KENJAYEV FARXOD IKRAM O‘G‘LI**

**ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK ROMANLARIDA  
JALOLIDDIN MANGUBERDI OBRAZINING BADIY TALQINLARI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti  
(filologiya fanlari)**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2428 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) veb-sahifaning www.tai.uz hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Hamdamov Ulug'bek Abduvohobovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Jabborov Nurboy Abdulhakimovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Hamraqulov A'zamjon Shermuxammadovich**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "23" may soat 16<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100060, Toshkent, Shahrisabz tor ko'chasi, 5. Tel.: (99871) 233-36-50; fax: (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Ziyolilar ko'chasi, 13. Tel.: (99871) 262-74-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "7" may da tarqatildi.

(2025-yil "6" may dagi 6 raqamli reyestr bayonnomasi).



*[Handwritten signatures in blue ink]*

**B. To'xliyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
filol.f.d., prof.

**R. Barakayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
filol.f.n., prof.

**Q.Y. Qahramonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi o'rinbosari,  
filol.f.d., prof.

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida roman poetikasiga oid ilmiy tadqiqotlar yaratish, badiiy asar tahliliga doir muammolarni yangicha usullarda tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Ayniqsa, tarixiy roman, tarixiy shaxs va voqelikning badiiy adabiyotda talqin etilishi hamda unda adabiy jarayon bilan bog‘liq masalalarning aks ettirilishi o‘ziga xos tarzda yoritilmoqda. Odatda, tarixiy shaxslar, vatan manfaati yo‘lida kurashgan milliy qahramonlar, qomusiy olimlar, avliyolarning tarixiy-badiiy talqini doimiy ravishda adabiy-estetik hodisa sifatida baholanib kelingan. Tarixiy shaxslar obrazining badiiy adabiyotdagi talqinlarini o‘rganish, shakliy-mazmuniy jihatlarini tadqiq etish adabiyotshunoslik fanining dolzarb masalalaridandir.

Dunyo adabiyotshunosligida roman janriga oid asarlar badiiyati muammolariga o‘ziga xos adabiy-estetik hodisa sifatida yondashish, ijodkor badiiy mahoratini ochib berish filologiya sohasidagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Tarixiy voqea va badiiy to‘qima o‘rtasidagi uyg‘unlikda tarixiy shaxs obrazi qiyofasini tasvirlash hamda uning ma‘naviy-ruhiy olamini ko‘rsatib berish yozuvchidan katta mahorat talab qiladi. Bunday eng muhim jihat tarixiy asarlar poetikasidagi obraz, tasvir, uslub muammolarini keng miqyosda o‘rganishga e‘tiborning ortganidir. Shu nuqtayi nazardan tarixiy shaxslar obrazining badiiy talqinlarini tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Istiqlol davri zamonaviy o‘zbek adabiyotida Mahmud Tarobiy, Abu Rayhon Beruniy, Imom Moturidiy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Gavharshodbegim, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Humoyun, Muhammad Akbarshoh kabi tarixiy shaxslar haqida yirik romanlar yaratildi. Tarixiy shaxslar va voqealarning zamonaviy badiiy talqini sho‘ro davri adabiyotida cheklangan, biryoqlama sovet mafkurasi nuqtayi nazaridan ijtimoiy bosim ostida yaratilgan bo‘lsa, mustaqillik davri adabiyotida yangicha-xolis badiiy talqinlar vujudga keldi. Zero, “Buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi singari vatanparvar, jasoratli ajdodlarimiz hayoti va faoliyatini chuqur o‘rganish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib etish barchamizning katta burchimiz desak, bu ham adolatli haqiqat. Albatta, bu narsaga hammamiz kirishishimiz kerak, ayni vaqtda bu borada fidoyi olim va adiblarimiz tomonidan olib borilayotgan ilmiy-ijodiy ishlarni qo‘llab-quvvatlashimiz, ularni yangi-yangi asarlar yaratishga rag‘batlantirishimiz lozim”<sup>1</sup>. Yoshlarda vatanparvarlik, milliy g‘urur va millatparvarlik ruhini shakllantirishda tarixiy romanlarning o‘rni katta ahamiyatga ega. Aynan shu jihatdan, mustaqillik davri romanchiligida yaratilgan asarlarda mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashgan sarkarda Jaloliddin Manguberdi siymosining badiiy talqinlarini, tarixiy shaxs obrazini o‘rganish adabiyotshunosligimizning dolzarb masalalaridan biridir.

---

<sup>1</sup> Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston. www.yuz.uz 29.08.2022.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari; 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilish darajasi.** Jaloliddin Manguberdi obrazi o‘zbek zamonaviy adabiyotida g‘oyaviy-badiiy jihatdan tarixiy roman janrining imkoniyatlarini ochib berishda alohida ahamiyat kasb etsa-da, obrazning o‘ziga xos mavqeyi, ijodkorlarning badiiy mahorati orqali ifodalangan ma‘naviy olami, badiiylik, tarixiylik va milliy g‘oya nuqtayi nazaridan tahlili hozirga qadar o‘zbek adabiyotshunosligida maxsus tadqiqot obyekti bo‘lmagan.

Jahon adabiyotshunosligida tarixiy roman, tarixiy shaxs obrazi masalalari Valter Skott, Gyorgy Lukacs, Avrom Flishman, Harry E. Shaw, Jo‘rji Zaydoniy, Jerome de Groot, Richard Maxvell kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan<sup>2</sup>.

O‘zbek adabiyotshunosligida tarixiy roman hamda tarixiy obrazlarning xususiyatlari haqida B.Fayziyev, O.Ikramov, S.Shirinov, N.Xudoyberganov, P.Alimov, D.Quronov, A.Rahimov, X.Lutfiddinova, D.To‘rayev, H.Karimov, A.Nosirov, S.To‘laganova, Sh.Isayeva, M.Pirnazarova, M.Hamrayeva, A.Hamraqulov, Sh.Doniyarova, G‘.Murodov, B.To‘rayeva, F.Xajiyeva,

---

<sup>2</sup> Walter Scott. Waverley. – Boston. Estes and Lauriat, 1893. – 512 p.; Gyorgy Lukacs. The Historical Novel. – London: University of Nebraska Press, 1893. – 363 p.; Erich Auerbach. Time, History, and Literature. – Nyu-Jersi: Princeton University Press, 2013 – 336 p.; Avrom Flishman. The English Historical Novel. – London: The Johns Hopkins Press, 1971 – 363 p.; Harry E. Shaw. The Forms of Historical Fiction. – London: Cornell University Press, 1983 – 254 p.; Jirji Zaydan. Tarikh al-Tamaddun al-Islami. Dar al-Hilal, Dar al-Hilal, Birut 1967 p.; Jerome de Groot. The Historical Novel. New York: Roudledge Press, 2009. – 208 p.; Richard Maxvell. The Historical Novel in Europe 1650-1950. Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 323 p.

I.Yakubov, Sh.Davronova, A.Axmedova, A.Allambergenov, M.Omanova, E.Jumayev, A.Uzoqov, N.Matmusayevalarning tadqiqotlarida keng o'rganilgan<sup>3</sup>.

Shuningdek, G'.Karimov, G'.Murodov, M.Sultonova, A.Kattabekov, A.Zayniddinova kabi olimlar tarixiy roman va tarixiy shaxslar haqida fikr bildirilgan bo'lsa<sup>4</sup>, E.Samandarov, M.Vali, M.O'razboyeva, F.Ikramovalarning ilmiy maqolalarida aynan Jaloliddin Manguberdi obrazi tahlil etilganligini kuzatish mumkin<sup>5</sup>.

Ko'rinadiki, o'zbek adabiyotida Jaloliddin Manguberdi obrazining badiiy talqinlari masalasi ilmiy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmagan. Chunonchi, istiqlol davri o'zbek adabiyotida tarixiy shaxslarni yangicha talqin qilish tamoyili shakllanmoqda. Bu borada tarixiy obrazlarni xalqchil, chuqur psixologik va tarixiy-realistik yondashuv bilan aks ettirish muhim masala sanaladi. Mazkur tadqiqot istiqlol davri o'zbek nasrida Jaloliddin Manguberdi siymosi aks etgan asarlarni monografik planda o'rganilgani bilan o'zidan avval amalga oshirilgan ishlardan farq qiladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti XX asr o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon bo'limi ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarildi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Istiqlol davri o'zbek romanlarida tarixiy shaxslar obrazini yaratishning badiiy takomili, xususan, Jaloliddin Manguberdi obrazining ilk talqinlari va o'ziga xosliklari, yozuvchilarning tarixiy asarlarida xarakter

---

<sup>3</sup> Fayziyev B. "Navoiy" romanida tarixiy haqiqat va badiiy to'qima: Filol.fan.nomz. ... diss. – Toshkent, 1968. – 185 b.; Xudoyberganov N. Hayot haqiqati va badiiy obraz. Filol.fan.d-ri. ... diss. – Toshkent, 1976. – 384 b.; Quronov D. Cho'lpon poetikasi (nasriy asarlari asosida). Filol.fan.d-ri. ... diss. – Toshkent, 1998. – 284 b.; Karimov H. Tarixiy shaxs va badiiy obraz. Filol.fan.nomz. ... diss. – Toshkent, 1999. – 151 b.; Nosirov A. Tarixiy haqiqat va uning badiiy talqini ("Yulduzli tunlar" romani misolida). Filol.fan.nomz. ... diss. – Toshkent, 1999. – 127 b.; To'laganova S. O'zbek romanchiligida yordamchi qahramon va uning badiiy funksiyasi. Filol.fan.nomz. ... diss. – Toshkent, 1999. – 125 b.; Pirnazarova M. Hozirgi o'zbek romanlarida uslubiy izlanishlar. Filol.fan.nomz. ... diss. – Toshkent, 2006. – 159 b.; Hamrayeva M. Tarixiy haqiqat va badiiy talqin. Filol.fan.nomz. ... diss. – Toshkent, 2008. – 138 b.; Hamraqulov A. O'zbek adabiyotida Mahmud Torobiy qo'zg'olonining badiiy tasviri. Filol.fan.nomz. ... diss. – Toshkent, 2011. – 150 b.; Doniyarova Sh. Istiqlol davri o'zbek romanlarida milliy qahramon muammosi. Filol.fan.d-ri. ... diss. – Toshkent, 2012. – 257 b.; Murodov G'. Tarixiy romanning mushtaraklik va o'ziga xosliklar uyg'unligi. Filol.fan.d-ri (DSc). ... diss. – Toshkent, 2018. – 263 b.; To'rayeva B. Tarixiy romanlarda badiiy zamon muammosi. Filol.fan.nomz. ... diss – Toshkent, 2018. – 147 b.; Yakubov I. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi. Filol.fan.d-ri (DSc). ... diss. – Toshkent, 2018. – 170 b.; Axmedova A. XX asr Amerika va o'zbek realistik romanlarida ideal qahramon obrazi: Filol.fan.b-cha.falsafa d-ri (PhD). ... diss – Toshkent, 2021. – 150 b.; Allambergenov A. O'zbek adabiyotida Abu Rayhon Beruniy obrazi talqinlarining qiyosiy tahlili. Filol.fan.b-cha.falsafa d-ri (PhD). ... diss – Toshkent, 2022. – 152 b.; Omanova O. O'zbek adabiyotida tarixiy haqiqat va badiiy to'qima. Filol.fan.b-cha.falsafa d-ri (PhD) ... diss – Jizzax, 2022. – 154 b.; Jumayev E. Mustaqillik davri o'zbek romanlarida Amir temur obrazi talqinlarining qiyosiy tahlili. Filol.fan.b-cha.falsafa d-ri (PhD). ... diss – Qarshi, 2023. – 150 b.; Uzoqov A. O'zbek prozasida Amir Temur obrazining gavdalanish tamoyillari. Filol.fan.b-cha.falsafa d-ri (PhD). ... diss – Guliston, 2023. – 134 b.

<sup>4</sup> Karimov G'. Prozamizda tarixiy tematika // Sharq yulduzi. 1979. № 3. – B. 194-207; Murodov G'. Badiiy asarda tarixiy va to'qima obrazlar munosabatiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. 1985. № 2. – B. 47-54.

<sup>5</sup> Erkinov Samandar. Tarix mas'uliyatni sevadi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2008, №28. – 3-4 b.; Muhammad Vali. Munosabat mo'jizasi. – Namangan: Iste'dod ziyo-press, 2022. – 7-23 b.; O'razboyeva M. Xorazm adabiy muhitida Jaloliddin Manguberdi obrazining yaratilishi // "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Toshkent, 2024. – 209-213 b.; Ikramova F. Maqsud Shayxzodaning dramasi Jaloliddin Manguberdi obrazi / Лучшие интеллектуальные исследования. – (elektron jurnal) Qo'qon, 2024. – 67-70 b.

yaratish mahorati, ijodkorlar uslubi va epik tasvirdagi yangicha yondashuvlar, tarixiy haqiqat hamda badiiy talqin masalalarini o'zbek adabiyoti rivojidagi munosib o'rni va ahamiyatini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

o'zbek adabiyotshunosligida tarixiy romanlar tadqiqi va obraz yaratish mahoratining badiiy takomili, uning o'ziga xosliklarilarni ilmiy asoslash;

Jaloliddin Manguberdi badiiy obrazining genezisi hamda talqinlarda uning milliy va universal qahramon sifatidagi timsoli, tarixiy va badiiy qimmatini belgilab beruvchi omillarni aniqlash;

istiqlol davri o'zbek romanlarida Jaloliddin Manguberdi obrazining tasvirlanishi, xarakter darajasiga ko'tarilishi, uslub va epik tasvirning ahamiyatini ko'rsatib berish;

tarixiy roman janri doirasida Jaloliddin Manguberdi obrazini yaratishda adiblarning ifoda usuli, mahorati, tarixiy shaxs obrazining estetik mazmunini ochib beruvchi badiiy vositalarni belgilash;

Jaloliddin Manguberdi obrazining tarixiy va badiiy o'lchovlarini o'zaro uyg'unlashtirgan tarixiy haqiqat hamda badiiy to'qima o'rtasidagi dinamik munosabatlarni ochib berish.

**Tadqiqotning obykti sifatida** Erkin Samandarning "Sulton Jaloliddin", Shahodat Ulug'ning "Jayxun epkinlari yoxud Jaloliddin Manguberdi qissasi", Shahodat Isoxonovanning "Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog'iga tushgan malika", Baxtiyor Abdug'afurning "Sulton Jaloliddin Manguberdi" romanlari tanlandi. Jaloliddin Manguberdi obrazining ba'zi jihatlarini ochib berish, qiyoslash maqsadida boshqa asarlarga ham murojaat qilingan.

**Tadqiqotning predmetini** istiqlol davri o'zbek adabiyotida Jaloliddin Manguberdi siymosi tasvirlangan tarixiy roman janridagi asarlar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy, analitik, biografik, tarixiy-madaniy, sotsiologik, ijodiy-genetik tahlil usullaridan foydalanilgan.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:**

Jaloliddin Manguberdi siymosining badiiy talqinlari o'zbek adabiyotida ilk marta tizimli ravishda o'rganilib, tarixiy roman janridagi estetik yondashuvlar, obraz yaratish tamoyillari hamda o'zbek tarixiy romanchiligi xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyot an'analariga asoslangan holda ilmiy-nazariy jihatdan ochib berilgan;

zamonaviy o'zbek nasrida tarixiy obraz yaratish tajribalari asosida uning badiiy genezisini aniqlash, o'zbek tarixiy romanchiligi taraqqiyoti tamoyillarini belgilash hamda tarixiy obraz yaratish tajribalarida Jaloliddin Manguberdi obrazining milliy va universal qahramon sifatida namoyon bo'lishi dalillangan;

istiqlol davri o'zbek tarixiy asarlarida xarakter yaratish usuli, ijodkor uslubida badiiy mahorat hamda epik tasvir ilmiy tahlil qilinib, yozuvchilarning individual yondashuvi, talqinlararo mushtaraklik va o'ziga xoslik xususiyatlari aniqlangan;

tarixiy romanlarda syujet qurilishi, konfliktning namoyon bo'lish xususiyatlari, badiiy detalining ahamiyati hamda alohida ma'no anglatishi, asar

kompozitsiyasini yaratishda mavjud tarixiy romanlar tajribasidan keng foydalanganligi, tarixiy fakt buzilmagan holda badiiylik ustunlik qilishi asoslangan;

Jaloliddin obrazining turli xil qiyofalari yaratilganligi, obrazning epik, dramatik va lirik turda ifodalanishida emotsional-ekspressivlik kasb etishi, obraz yaratishda janr imkoniyatlari hamda badiiy ifoda vositalarining o'zni, turli xalqlar adabiyotida Jaloliddin obrazining aks ettirilishi ishda tizimli tadqiq etilgan.

**Dissertatsiyaning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

Jaloliddin Manguberdi obrazini yoritishda fakt va badiiy to'qimaning uyg'unligi, tarixiy va badiiy mazmunning zamon bilan bog'lanishi, shuningdek, yozuvchilarning vatanparvarlik, milliy g'urur va axloqiy qadriyatlarni ifodalashdagi hissasi tizimli ravishda tahlil qilinib, badiiy-estetik yondashuvlarning nazariy asoslari ochib berilgan.

Istiqlol davri tarixiy romanlarida obraz yaratishda janr va ifoda uslublarining takomillashuvi, yozuvchilarning milliy ruhiyat va tarixiy shaxs konsepsiyalariga mos badiiy izlanishlari, badiiy tafakkurdagi yangicha qarashlar asosida namoyon bo'lganligi asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalari** Jaloliddin Manguberdi haqidagi asarlarning qiyosiy tahlili orqali obrazning yangi talqin shakllarini aniqlashga xizmat qilib, milliy adabiyotshunoslik sohasida tarixiy roman janrini o'rganishda yangi yo'nalishlarni belgilagan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** Jaloliddin Manguberdi obrazini talqin qiluvchi asarlarning qiyosiy-tipologik tahlil usuli asosida ilmiy tadqiq qilingani, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslangani, nazariy fikr-xulosalar tarixiy-qiyosiy tadqiq usuli asosida chiqarilgani, ishonchli manbalar va lug'atlardan foydalanilgani, nazariy qarashlarning amaliyotga tatbiq etilgani hamda natijalarning tegishli vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Mazkur tadqiqot natijalari Jaloliddin Manguberdi siymosini badiiy-estetik talqin orqali yaxlit planda ko'rsatishga imkon beradi. Tadqiqot davomida chiqarilgan nazariy xulosalar tarixiy shaxs obrazining o'zbek adabiyotidagi badiiy shakllanish tamoyillarini chuqur anglash va umumlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu xulosalardan Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan monografiyalar, o'quv qo'llanmalari, darsliklar, risolalar va adabiy portretlar yaratishda foydalanilish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ushbu dissertatsiya ishi materiallaridan ta'limning turli bosqichlarida, xususan, oliy ta'lim muassasalarining filologiya fakultetlarida o'tiladigan maxsus kurslar va seminar mashg'ulotlarida, "XX asr o'zbek adabiyoti", "Hozirgi adabiy jarayon" va "Badiiy tahlil asoslari" fanlariga oid ma'ruza matnlarini tayyorlashda va ochiq darslarni tashkil etishda ilmiy-metodik manba sifatida xizmat qiladi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati milliy adabiyotda tarixiy shaxslarning haqqoniy va badiiy talqinlarini yoritishga qaratilgan istiqbolli tadqiqotlar uchun nazariy metodik asos yaratadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:** “Istiqlol davri o‘zbek romanlarida Jaloliddin Manguberdi obrazining badiiy talqinlari” tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalardan:

istiqlol davri o‘zbek tarixiy romanlarida obrazning tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima uyg‘unligidagi ifodasi; tarixiy shaxs siymosini yaratishda janr hamda poetik mahorat tamoyillari; yozuvchilarning obraz orqali milliy g‘urur, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni yoritishdagi hissasi; fan-texnika taraqqiyotining inson tafakkuri, xususan, badiiy adabiyotga ta’siri masalalariga oid xulosalardan O‘zR Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FA-F1-005 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” (2017-2020-yy.) fundamental loyihasida foydalanilgan (O‘zR Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi, Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 18-noyabrdagi 536/1-son ma’lumotnomasi). Natijada istiqlol davri o‘zbek romanchiligiga doir adabiyotshunoslikdagi mavjud ilmiy mulohazalar, tarixiy shaxs siymosini yaratishda janr va poetik mahorat tamoyillari haqidagi nazariy qarashlar yanada boyitilgan;

mustaqillik davri o‘zbek romanlarida Jaloliddin Manguberdi obrazining badiiy ifodalanishi, milliy o‘zlik va tarixiy qadriyatlarni ifodalash tamoyillari hamda istiqlol davri tarixiy romanchilikdagi yangi uslubiy yondashuvlar haqidagi nazariy masalalar dalillanganligi haqidagi xulosalardan Nukus davlat pedagogika instituti tomonidan bajarilgan DGU14919 va DGU14918 “Adabiy o‘qish (10-sinf O‘zbek tili darsligi asosida)” hamda “Adabiy o‘qish (11-sinf O‘zbek tili darsligi asosida)” (2021-2022-yy.) innovatsion loyihalarida foydalanilgan (Nukus davlat pedagogika institutining 2024-yil 20-noyabrdagi 01-20-09/2243-son ma’lumotnomasi). Natijada istiqlol davri o‘zbek romanlarida obraz yaratish tamoyillarining badiiy adabiyotga ta’siri, yangi manbalarning yuzaga kelishi va ularning romanlarda tarixiy shaxs obrazini tasvirlashda samarali qo‘llanilishi masalalari yoritilganligi, tarixiy shaxs obrazlarini ifodalashda yozuvchilarning ijodiy yondashuvlarini aniqlash hamda tarixiy manbalar va badiiy to‘qimaning o‘zaro bog‘liqligi asosidagi mulohazalar muhim xulosalar chiqarish imkonini bergan;

istiqlol davri yozuvchilari Jaloliddin Manguberdi obrazini milliy g‘urur va o‘zlikni tarannum etuvchi badiiy qiyofa sifatida tasvirlashi, ularning asarlari orqali tarixiy shaxsning vatanparvarlik fazilatlarini zamonaviy o‘quvchiga yaqin badiiy uslublarda yoritilgani, shuningdek, o‘tmish voqealarining bugungi kun bilan bog‘lanishi asarlar mazmunini yanada boyitgani haqidagi ilmiy xulosalaridan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Xorazm” telekanalida efirga uzatilgan “Assalom Xorazm” ko‘rsatuvining ssenariysini yozishda foydalanilgan (Xorazm milliy teleradiokanalining 2024-yil 5-dekabrdagi 1051-son ma’lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlarning istiqlol davri o‘zbek tarixiy romanchiligida tarixiy obrazlarning yangicha talqini va mazmuniy o‘zgarishlari yuzasidan bilimlari boyishiga, tasavvurlari kengayishiga erishilgan;

Jaloliddin Manguberdi obrazining mustaqillik davri o‘zbek romanlarida badiiy ifodalanishi, milliy o‘zlik va tarixiy qadriyatlarni yoritish tamoyillari,

shuningdek, istiqlol davri tarixiy romanchilikdagi yangi uslubiy yondashuvlar bo'yicha olib borilgan tahlillardan "Bedorlik" va "Adabiy jarayon" kabi eshittirishlarda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 25-noyabrdagi 04-36-1216-son ma'lumotnomasi). Natijada eshittirishlarning ilmiy-ma'rifiy jihatdan salohiyati ortishiga, badiiy adabiyotning tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyatini ochib berishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 4 ta xalqaro hamda 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda qilingan ma'ruzalar va xalqaro saytlarda jamoatchilik e'tiboriga havola qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 153 sahifadan tashkil topgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning dastlabki bobi "**O'zbek nasrida tarixiy romanlar tadqiqi va obraz yaratish tajribalari**" deb nomlagan bo'lib, "*Tarixiy roman janrining o'rganilishi va tarixiy shaxslar obrazining badiiy takomili*" sarlavhali birinchi faslida tarixiy romanlarning genezisi, tarixiy takomili, obraz yaratish tajribalari xususida bahs yuritilgan.

O'zbek tarixiy romanchiligida obraz yaratish tajribasi uzoq yillik adabiy an'analarga tayanadi. Adabiyotning turli davrlardagi usullari va poetik xilma-xilligi insoniyatning dunyoni anglash, tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqqan. Inson jamiyat sifatida rivojlanar ekan, so'z san'ati o'z davrining ijtimoiy, ma'naviy va estetik talablariga javob beruvchi vosita sifatida shakllandi. U o'z ichki dunyosidagi kechinmalarni tabiat hodisalari va voqealar bog'liqligi bilan bog'lab talqin qilish orqali badiiy ifoda imkoniyatlarini kashf etdi.

Tarixiy roman badiiy adabiyotning muhim janrlaridan biri bo'lib, unda tarixiy voqealar, davrlar va shaxslar badiiy talqin orqali qayta tasvirga ega bo'ladi. Ushbu janr o'zining murakkab tabiati bilan ajralib turadi, chunki undan tarixiy haqiqat va badiiy voqelik birgalikda o'rin oladi. Tarixiy roman adabiy jarayonda ijtimoiy, madaniy va ma'naviy jarayonlarni tahlil qilish hamda o'tmishni badiiylik nuqtayi nazaridan yoritishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Adabiyotshunos

olimlar ta'kidlaganidek: "...tarixiylik degan so'z tarixiy mohiyatni ochish kerak demakdir. Axborot sifatida keltirilgan fakt badiiy asar uchun kerak emas. Ya'ni shuni ham bilish kerakki, badiiy asarda yozuvchi o'quvchi ixtiyoridan tashqari, biz xohlaymizmi, yo'qmi, to'qima qilishga majbur"<sup>6</sup>.

Tarixiy roman janri tarixiy faktlarni badiiy voqelik orqali ifoda etadi. Bu jarayonda yozuvchi ikki muhim tamoyil – tarixiy faktga sodiqlik va badiiy talqin erkinligini uyg'unlashtirishi zarur. Birinchisi, tarixiy haqiqat: tarixiy roman tarixiy voqealarga asoslangan bo'lib, unda tarixiy davrning real sharoitlari, shaxslar va muhit badiiy shaklda aks ettiriladi. Yozuvchi tarixiy manbalarni noto'g'ri talqin qilishdan qochishi, tarixiy manbalarga sodiqlikni saqlashi lozim. Ikkinchisi, *badiiy to'qima*: tarixiy roman, o'z tabiatiga ko'ra, badiiy talqin erkinligini ta'minlaydi.

Tarixiy romanlar tadqiqotchilar tomonidan turlicha tasniflangan. Xususan, prof. G'.Karimov tarixiy roman janrini tematik asosda "tarixiy-revolyutsion, tarixiy-biografik, tarixiy etnografik, tarixiy-maishiy va boshqa" turlarga bo'linganligi va bo'linishni o'tmishga ijodkorning qanday yondashganligi bilan bog'laydi: "Tarixiy romanlarni yaratishda yozuvchilarning qo'llagan usullari tarixiy faktlarga munosabatlari jihatidan ham tarixiy romanlar bir-biridan farq qiladilar. Chunonchi, umumiy tarixiy fonni asosga olib, yozuvchi fantaziyasida yaratilgan voqealarni tasvir qiluvchi tarixiy romanlar va konkret tarixiy shaxs yoki ayrim tarixiy voqeaga bag'ishlab, butunisicha shuni tasvir qilishga bag'ishlangan tarixiy romanlar"<sup>7</sup>.

Adabiyotshunos G'.Murodov esa bugungi jahon adabiyotidagi tarixiy romanchilikni tadqiq qilar ekan, tarixiy romanlarning ikki asosiy shaklini ajratadi: "an'anaviy tarixiy roman va tarixiy-biografik roman"<sup>8</sup>. Tarixiy romanchiligimiz bo'yicha olib borilgan tadqiqotlardan shuni anglash mumkinki, o'zbek adabiyotida an'anaviy tarixiy va tarixiy-biografik romanlar yetakchilik qiladi va barcha tarixiy romanlar ayni ikki shaklda mujassam bo'ladi. Bu ikki shakldan tashqari, Jaloliddin Manguberdi obrazi tasvirlangan tarixiy romanlarda yana bir jihat mavjudki, u ham bo'lsa, an'anaviylik va zamonaviylikni o'zida uyg'unlashtiruvchi gibril turning shakllanayotganidir. Erkin Samandarning "Sulton Jaloliddin" tarixiy realistik romani garchi tarixiy manbalarga asoslanib yozilgan bo'lsa-da, unda qadim o'tmishdan shakllanib kelayotgan afsonaviy epizodlar tasvirga olinadi: "Shu on Jaloliddin ko'z o'ngida g'aroyib hol ro'y berdi. Saflar ortida bahaybat-bahaybat piyoda yigitlar, ularning orqasida devqomat suvoriylar paydo bo'ldi. Qo'shin ko'paygandan ko'payib bordi...Savash tugagach, Jaloliddin g'oyibdan paydo bo'lgan o'shal suvoriylar va piyodalarni birlashtirmoqchi bo'lib harchand axtardi, topa bilmadi"<sup>9</sup>. Yozuvchi qadimiy afsonalardan foydalangan holda fantastik janrga xos epizodlarni kiritadi va tarixiy-realistik tasvirlar bilan uyg'unlashtiradi. Bu esa tarixiy romanning genezisida epos – tarixiy-ana'anaviy – tarixiy-biografik bosqichlarini belgilaydi. Natijada turli janr va uslublarning uyg'unlashuvi orqali gibril tur vujudga keladi.

---

<sup>6</sup> Rahimjonov N., Qo'bayev Q. Tarixiy qissalar haqiqat izlaydi. – Toshkent: Adolat, 2005. – B. 20.

<sup>7</sup> Karimov G'. Prozamizda tarixiy tematika // Sharq yulduzi. 1979. № 3. – B. 198-199.

<sup>8</sup> Murodov G'. Tarixiy roman: mushtaraklik va o'ziga xosliklarlar uyg'unligi muammolari. Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2018. – B. 21.

<sup>9</sup> Erkin Samandar. Sulton Jaloliddin. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2007. – B. 30-31.

Shuningdek, muayyan tarixiy shaxs siymosini badiiy asarda gavdalantirish prinsiplari, janrlar genezisi va qamrov doirasiga ko'ra ma'lum farqlanishlarga ega. Chunonchi, dastlab xalq dostonlarida madh etilgan, turli qahramonona harakatlari bayon qilingan tarixiy, shuningdek, afsonaviy obrazlarning keyinchalik romanlarda uchrashi epik turning tasvir imkoniyatlari kengligi bilan izohlansa-da, har bir janrning muayyan va o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini unutmashimiz kerak.

Tadqiqot natijasida ayon bo'ldiki, jamiyatlarning jamoaviylikka ehtiyoji yuqori darajaga yetganda epos paydo bo'lgan, individuallik kurtak ochganda epos dostonlari jadal ortib borgan, individuallik yuqori darajaga yetganda roman, ayniqsa, tarixiy roman janri yuzaga kelgan. O'zbek adabiyotida esa ko'proq tarixiy realistik romanlarga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotganligi, ayni xalqning individual, ya'ni o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy-siyosiy erkinlikni qayta qo'lga kiritishga intilishi va kiritganligi, ayni istiqlolni mustahkamlashda ulug' o'tmishimizni millat ruhiga kuch bo'la oladigan shonli tariximizni qayta jonlantirish zarurati sifatida namoyon bo'layotganligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Ushbu jarayonni badiiy ehtiyoj doirasidan kelib chiqib talqin qilish orqali xalqlarning madaniy va ma'naviy taraqqiyotidagi umumiy tamoyillarga nisbatan badiiy tashxis qo'yish mumkin. O'zbek adabiyotida roman janrining shakllanishida tarixiy roman alohida o'rin tutgan bo'lib, u mazkur janrning rivojlanishi uchun muhim asos yaratgan.

Bobning "*Jaloliddin Manguberdi obrazining ilk talqinlari*" deb nomlangan ikkinchi faslida Jaloliddin Manguberdi obrazining ilk talqinlari, ya'ni tarixiy manbalar, turli xil janrlarda qahramon obraziga murojaatlarni, davr almashuvi bilan tarixiy shaxslarga bo'lgan munosabatlarning o'zgarish masalasi o'rganilgan. Tarixiy shaxslarning xalq qahramoni sifatida jamiyat ongida shakllangan badiiy obrazlari qadimiy adabiy jarayonda dolzarblik kasb etganidek, zamonaviy adabiyotda ham yangi uslub va kayfiyatdagi asarlarning yaratilishiga ilhom manbayi bo'lmoqda.

Ilk marotaba Jaloliddin Manguberdi obrazi Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning "*Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mengburni*" asarida yuqori darajada reallik, badiiylik va san'atkorona aniqlik bilan tasvirlangan. "U bug'doymag'iz ranglik, o'rta bo'ylik, turkiy qiyofalik va turkiyda gapiradigan odam edi, shu bilan birga, forsiyda ham so'zlasha olardi. Uning mardligi, jasurligiga kelsak, yuqorida hikoya qilganim janglardagi faoliyatini eslab o'tishning o'zi kifoya qiladi. U sherlar orasida eng zo'r sher edi, qo'rqmas chavandoz, lashkarlar orasida eng botir edi. U yuvosh, muloyim odam edi, jahldor emasdi, haqoratomuz so'zlarni aytmasdi. Jaloliddin nihoyatda jiddiy edi, kulmasdi, faqat jilmayib qo'yardi, kam gapirardi. U haqgo'ylikni, adolatni ulug'lardi, ammo u yashagan davrdagi g'alayonlar, alg'ov-dalg'ovlar fe'l-atvorini o'zgartirdi. Jaloliddin qo'l ostidagi odamlarning og'ir hayotini yengillashtirishni xohlardi, ammo u yashagan davr qonunlari uni zulm qilishga majbur etardi"<sup>10</sup>. Muarrix Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy qahramon portretini chizishda rang (bug'doy rang), bo'y (o'rta bo'ylik),

---

<sup>10</sup> Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. *Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mengburni*. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – B. 301.

yuz ko‘rinishi(turkiy qiyofalik), til (turkiyda gapiradigan odam), fe‘l-atvor(yuvosh, muloyim) ta‘riflarini, shuningdek, ruhiy holatlarini tasvirlaydi. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning asari Jaloliddin Manguberding hayoti va shaxsiyatini haqqoniy yoritish bo‘yicha birinchi muhim fakt hisoblanadi. Muallif qahramonning shaxsiy fazilatlarini, siyosiy qarashlari va jangovar faoliyatini realistik uslubda tasvirlagan. Bu tasvir keyingi asrlarda Jaloliddin obrazining badiiy talqinlarida ishonchli manba sifatida xizmat qilgan. An-Nasaviy Jaloliddinning zamondoshi va shaxsiy munshiyasi bo‘lgani sababli uning ta‘riflari tarixiy faktlarning ishonchlilik va badiiy ifodalilik jihatidan alohida ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy manbalar yozilish usuliga ko‘ra bugungi zamonaviy adabiyotning tarixiy-badia asarlariga juda yaqin, shu sababli quyida ulardagi Jaloliddin Manguberdi shaxsining turli xil talqinlariga to‘xtalamiz. Birinchi davrda yozilgan asarlar mualliflarining ko‘pchiligi Sulton Jaloliddin Manguberdi o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, bevosita muloqot qilgan, hatto janglarda birga qatnashgan Sharq muarrixlari hisoblanib, Jaloliddin Manguberdi siyosini, xarakterini, uning mo‘g‘ullar bilan qilgan har bir jangi tafsilotini va siyosiy faoliyatini ochiq-oydin yozib qoldirgan. Alouddin Atomalik Juvayniy o‘zining “Tarixi jahongusho” asarida Jaloliddinga shunday ta‘rif beradi: “Sulton Muhammadning o‘g‘illari orasida yosh jihatidan kattasi, jasorat va bilim jihatidan ustuni, saltanat toji va ilohiyot chirog‘ining nuri Sulton Jaloliddin edi. Boshqa ukalarining vaqtichog‘lik qilishi va dunyo ne‘matlariga berilgan bo‘lishiga qaramasdan, Sulton Jaloliddin hech qachon otasi yonidan ayrilmasdi, davlat ishlarida unga yordam berardi. Otasi to‘g‘ri yo‘ldan uzoqlanganida va xato ishlar qilgan paytlarida ularni yuziga aytardi”<sup>11</sup>. Mazkur ta‘rifdan shuni anglash mumkinki, Jaloliddin obrazidagi qat‘iylik, dunyo noz-ne‘matlariga emas, el-yurt qayg‘usiga otlangan shaxs ekanligini zohir qiladi, shu jihatlardan bu obraz keyinchalik badiiy asarlarda o‘z aksini topdi. Shuni ham ta‘kidlash kerakki, Jaloliddin haqida faqat ijobiy ta‘riflar emas, o‘zgacha fikrlar ham uchraydi. Ayni shunday fikrlardan biri muarrix Ibn al-Asir tomonidan keltirilgan: “Jaloliddin juda johil odam bo‘lib, o‘z davlatini yomon boshqardi. Barcha qo‘shni hukumdorlar bilan dushmanlik munosabatlarida bo‘ldi, ularning mulklariga doimo ko‘z olaytirdi. Shuning uchun ham zarur paytda hech kim unga yordam qo‘lini cho‘zmadi, barcha uni tashlab ketdi”<sup>12</sup>, – degan fikrlaridir.

O‘zbek adabiyotida Jaloliddin Manguberdi siyosining yangi janrlarda aks etishi Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi”<sup>13</sup> dramasi orqali boshlangan bo‘lib, bu asar keyinchalik roman janrida yaratilgan asarlarga poydevor bo‘lib xizmat qildi.

Kuzatishlarimizdan ma‘lum bo‘ldiki, bu davrda Jaloliddin Manguberdi obraziga drama janrida yondashuv muvaffaqiyat qozongan bo‘lsa-da, ijodkorlarning ayni asarlari tufayli ta‘qib qilinishi keyingi yillarda drama va roman kabi asarlarda tarixiy qahramonlar obrazini tasvirlashga to‘siq bo‘lib, endi milliy qahramonlar ko‘proq she‘riy asarlarga ko‘chadi.

<sup>11</sup> Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi jahongusho. – Toshkent: Mutoz so‘z, 2015. – B. 364-365.

<sup>12</sup> Ibn al-Asir. Al-kamil fi-t-tarix. (Mukammal tarix). – Toshkent: Цюрих, 2005. – С. 399.

<sup>13</sup> Maqsud Shayxzoda. Jaloliddin Manguberdi. Tarixiy drama. – Urganch: Xorazm nashr matbaa, 2022. – B. 12.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Istiqlol davri o‘zbek romanlarida Jaloliddin Manguberdi obrazi”** deb nomlangan. Uning *“Tarixiy asarlarda xarakter yaratish mahorati”* faslida tarixiy-realistik asarlarda obraz xarakteri, asosan, tarixiy shaxs haqida o‘tmishda yozilgan ma’lumotlarga tayanilsa-da, uning to‘liq xarakteri badiiy tarzdagina jonlilik kasb etishiga diqqat qaratilgan. Xususan, yozuvchi tarixiy qahramonning ko‘p qirrali siymosini ochib berishda turli xil manbalarni tahlil qilish, solishtirish va ijodiy yondashuv orqali badiiy maqsadiga mos tasvir yaratishga erishadi. Ushbu yondashuv tarixiy voqealarning badiiy-estetik talqinini nazariy asos bilan boyitib, qahramonning murakkab obrazini shakllantirishga xizmat qiladi.

Erkin Samandar *“Sulton Jaloliddin”* romanida Jaloliddin Manguberdi obraziga yangi xususiyat qo‘shib, uning ruboiylar yaratgani va nazm qoidalariga mos yozganligini tasvirlab, ijodkorlik iste’dodini tasdiqlaydi. U o‘z xarakterida qat’iyatli sarkarda, bilimli hukmdor va ijodiy tafakkurga ega shaxs fazilatlarini uyg‘unlashtirgan obraz sifatlarini mujassam qiladi. Jaloliddin Manguberi hayoti aks etgan boshqa tarixiy romanlarda obrazning bu xarakteri, nozik did sohibi ya’ni *“dilbar shaxs”* ekanligi ko‘zga tashlanmaydi. Rivojlangan o‘rta asrlarda yozilmagan qonunlardan biri – hukmdorlarning shoir-u shuarolar bilan munosabati, nazm bilan shug‘ullanishi butun xalqning boshqaruvchisi sifatidagi shaxsning ijodkorlik salohiyatini belgilab, uning fe’li-faoliyati bilan oddiy xalq o‘rtasidagi munosabatlarda ko‘prik vazifasini bajargan. Shuning uchun ham yozuvchi ayni yangilikni romanga kiritib, uni bosh qahramonning muhim jihati sifatida tasvirlaydi.

Ziddiyatli yoki murakkab xarakter qahramonning ichki kurashini ochib berish uchun muhim hisoblanib, asosan, ikkinchi darajali obrazlarda namoyon bo‘ladi, *“Sulton Jaloliddin”* asarida Alouddin Muhammad obrazida ayni xarakterni kuzatish mumkin. Uning ichki konflikti boshqa obrazlarga qaraganda ziddiyatlarga boy. Roman davomida uning ijobiy yoki salbiy shaxs ekanligini anglash qiyin bo‘lib, jumboqli harakatlarni amalga oshiradi. Masalan, besh yuz ming qo‘shini, to‘rt yuz ellik qal’asi bo‘lgan va Iskandari soniy, ya’ni ikkinchi Iskandar deb ulug‘lanib kelingan xorazmshoh Alouddin Muhammadning o‘g‘li Jaloliddin va sarkarda Xivaqiylarga qat’iy qarshi chiqib, har bir qal’a o‘z-o‘zini himoya qilish haqidagi yoki ko‘p sonli qo‘shin va sadoqatli jangchilari bo‘la turib, umuman jang qilmay qochib yurishi asarda jumboqli bo‘lib, personajning ziddiyatli xarakteriga bog‘lanadi. Romanlarda ziddiyatli xarakter ko‘p holatlarda haddan ziyod ikkilanadi.

Shuningdek, an’anaviy xususiyatlarga ega xarakterlar ham mavjud bo‘lib, oldindan belgilangan an’anaviy xususiyatdagi xarakterli obrazlardir. Ular o‘ziga xos rivojlanishga ega emas. Romanda Chingizxonning shafqatsiz va ayovsiz sifatleri, ba’zi romanlarda esa Turkon Xotun obrazida mujassam bo‘lgan qahri qattiq sifatidagi xarakteri an’anaviy tasvirlanib, ularni ko‘p holatlarda ijodkor asarga kiritganda qayta shu qiyofa takrorlanadi. Buning asosiy sababi ularning tarixiy davrda qoldirgan salbiy harakatlaridir. Shunday bo‘lsa-da, an’anaviy xarakterdagi obrazlar o‘zbek romanchiligida, ayniqsa, bugungi kunimizga yaqin davrda yozilgan tarixiy romanlarda bu an’anaga qisman bo‘lsa-da rioya

qilinmaydi. Masalan, Turkon Xotun obrazi Shahodat Isaxonovanning “Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog‘iga tushgan malika” romanida ijobiy xarakterda tasvirlanadi va uning tarixiy asoslarini ham badiiy yo‘sinda dalillab o‘tadi. Yoki Baxtiyor Abdug‘afurning “Sulton Jaloliddin Manguberdi” roman-dilogiyasida Chingizxon an‘anaviy tarzda jallod, qonxo‘r obraz emas, siyosiy yetuk hukmdor darajasida gavdalanadi.

Tarixiy va badiiy yondashuvning uyg‘unligi Manguberdining xarakterida ota va bola o‘rtasidagi to‘qnashuvning murakkabligini, ammo bu ziddiyatning o‘zaro hurmat asosida hal qilinishini ochib beradi. Erkin Samandar bu jihatlarni badiiy talqin orqali yoritib, qahramon xarakterini tarixiy jarayonlar va ijtimoiy vaziyatlarning ta‘sirida yetuklik darajasiga olib chiqadi. Bu yondashuv qahramonni ijobiy xarakter sifatida ko‘rsatishda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Jaloliddin Manguberdi xakteri tarixiy roman doirasida dinamik, ya‘ni o‘zgarib boruvchi obraz bo‘lib yoritilgan. Yozuvchi qahramonni har bir konflikt davomida ruhiy va ma‘naviy jihatdan yuksalib boruvchi lider sifatida tasvirlaydiki, mutolaa davomida o‘quvchi Jaloliddin fe‘l-atvoridagi jiddiylik, mas‘uliyat hissi va maqsadga sodiqlikni anglaydi va shu fazilatlarni qabul qiladi, bu esa asarning tarbiyaviy funksiyasini ham ochib beradi.

Bu davrda yaratilgan tarixiy asarlarda mafkuraviy qoliplardan ozod bo‘lish, badiiy asarlarga yangicha yondashuv, o‘tmishni haqqoniy tasvirlash kabi intilishlarni kuzatamiz. Shunday bo‘lsa-da, o‘zbek adabiy hayoti bu badiiy yuksaklikka keyingi davrlarda erishmoqda. Erkin Samandar, Shahodat Isaxonova, Shahodat Ulug‘, Baxtiyor Abdug‘afur kabi ijodkorlarning Jaloliddin Manguberdi obrazini tasvirlab keluvchi asarlarida bu jihat yaqqol namoyon bo‘ladi.

Kuzatishimizcha, istiqlolning ilk davrlarida, bir tomondan, o‘tish davri murakkabliklari, ikkinchi tomondan, ilmiy-nazariy va badiiy-estetik asoslarni qayta ko‘rib chiqish jarayoni badiiy asarlarda, ayniqsa, xalq o‘tmishini o‘zida mujassam qiluvchi tarixiy asarlarda o‘z aksini topdi.

Bobning “*Romanlarda uslub va epik tasvir*” deb nomlangan ikkinchi faslida bugungi o‘zbek nasrida har bir ijodkorning o‘ziga xos jihati, xususan, istiqlol davrida Jaloliddin Manguberdi obrazi aks etgan romanlarda uslub masalasi o‘rganilgan.

Uslubni belgilovchi asosiy xususiyatlar hisoblangan mavzu, g‘oya, syujet, konflikt, kompozitsiya, badiiy til, badiiy tasvir vositalari kabilar adabiy asarning shakl va mazmuniga singib ketadi. Bu xususiyat orqali yozuvchi-adibning o‘ziga xos uslub belgilari namoyon bo‘ladi. Yozuvchi uslubida dunyoqarashi, adabiy-estetik konsepsiyasi, badiiy fantaziyasi, iste‘dod salohiyati, estetik ideali, hayot materialini qalb prizmasidan o‘tkazish qobiliyati va badiiy to‘qimaga singdirish mahorati, janr imkoniyatlaridan foydalana olish, so‘z tanlash san‘atini kuzatish mumkin. Albatta, ijodkor o‘zining asar yaratish jarayonidagi o‘y-kechinmalari, uning asar bosh qahramonini tasvirlashga bo‘lgan tarixiy haqiqat asosidagi hayotiy voqeeliklar, ruhiy holatlar, psixologik o‘zgarishlar, umuman, barcha tafsilotlarni asarga to‘liq kiritolmaydi.

Shahodat Isaxonovanning “Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog‘iga tushgan malika” nomli romanidagi voqea-hodisalar, personajlarning

xatti-harakatlari Xorazmdek ulkan hududlarni o‘z tegrasida tutgan va kuch-qudrat, ilm-fan jihatdan dunyoga mashhur bo‘lgan qadim davlatning tanazzuliga asosiy sababchilardan bo‘lgan Xorazmshoh Alouddin Muhammad va volidasi Turkon xotun obrazlari atrofida yozuvchi tomonidan original tarzda mujassamlashtirilgan. Boshqa personajlar esa ana shu ikki hukmdorning fojeali, dramatik qismatiga dinamik tarzda tutashadi.

Shuningdek, ijodkorning istiqloldan oldin yozilgan “Intiqom” qissasida bosh qahramon – Jaloliddin Manguberdi. Muallif tarixiy shaxslarni tasvirlashda ularning hayotidagi eng dramatik va fojiviy lahzalarga alohida e’tibor qaratgan. Jaloliddin Manguberdi qobiliyatli va mard sarkarda, shuningdek, or-nomus va sha’nini pok saqlashga intilgan, vatani manfaatlarini uchun fidoyilik ko‘rsatishga tayyor inson sifatida gavdalantiriladi.

Tarixiy roman uslubida maqollar va xalq hikmatlaridan foydalanish obrazlarning shaxsiy xususiyatlarini, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini va maqsadlarini chuqurroq yoritadi. Mazkur uslub badiiy detallarni semantik mazmun bilan to‘ldirib, asarning dramatik va estetik ta’sirini kuchaytiradi. Yozuvchi bunday nutqiy uslub orqali obrazlarning ichki olami va ularning tarixiy ahamiyatini kengroq ochib beradi.

Turkon Xotun obrazida momolarga xos an’analar, jumladan, nabiralariga ertak aytish orqali o‘z dunyoqarashi va hayotiy tajribasini yetkazish usuli yoritiladi. Uning nutqida uchraydigan “Har narsaning ozi yaxshi,”<sup>14</sup> “O‘zlik-o‘zlik topishar, yotgan balo yopishar”<sup>15</sup> kabi maqollar obrazning aql-idroki, dunyoqarashi va ijtimoiy hodisalarga bo‘lgan pragmatik yondashuvini namoyon qiladi. Bu usul yozuvchining tarixiy shaxsni milliy-estetik nuqtayi nazardan talqin etish mahoratini ochib beradi.

Ijodkorlarning tarixiy davrlarni tasvirlashda millatlararo konfliktlarni muayyan bir xalqqa emas, balki shaxslarga “aybnoma” sifatida yo‘naltirishiga sabab bo‘lgan tub g‘oya kelajak avlodni badiiy asardagi kabi keskin to‘qnashuvlardan asrash maqsadidir. Bunda konfliktning universal va individual talqini orqali yozuvchilar insoniyatni bunday ziddiyatlardan xoli kelajak sari yo‘naltirishga intilgan.

Tarixiy romanda adibning badiiy g‘oyasini yorqinroq ko‘rsatib turuvchi matnlar ko‘pincha takroriy ravishda uchrashi yoki bir xil ma’no saqlangan holda tasviriy matn almashinib kelgan. Bu uslub badiiy asarda muhim g‘oyani kuchaytirish va o‘quvchining e’tiborini asosiy masalaga qaratishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Yozuvchining uslubiy mahorati shundaki, takroriy epizodlar yoki fikrlar har gal yangicha badiiy kontekstda qo‘llanib, ular asar mazmunini boyitadi va dramatik ta’sirni kuchaytirgan. Bunday yondashuv nafaqat yozuvchining badiiy mahoratini, balki tarixiy mavzularni badiiy talqin qilishda uslubiy o‘ziga xosligini ham namoyish etadi.

---

<sup>14</sup> Shahodat Isaxonova. Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog‘iga tushgan malika. Sano standart. – Toshkent: nashriyoti. 2018. – B. 56.

<sup>15</sup> O‘sha asar. – B. 72.

Kuzatishimizcha, Erkin Samandar va Shahodat Isaxonava kabi ijodkorlar tarixiy realizm doirasida qahramonlarning ichki ziddiyatlarini va tashqi dunyo bilan munosabatini sinchkovlik bilan tahlil qilgan. Jaloliddin Manguberdi obrazidagi vatanparvarlik, fidoyilik va mas'uliyatini bosqinchilar tomonidan ham e'tirof etilgan jihatlar bilan badiiy tarzda yoritgan. Bu yondashuv tarixiy romanchilikda badiiylik va tarixiy muvofiqlikni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Shahodat Isaxonova asar qahramonlarining badiiy obrazini ularning dialoglari va nutqlari orqali ochib beradi. Har bir nutq personajning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ifodalaydi va ularni individuallashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Dialoglarning dramatik ta'siri asar g'oyasini kuchaytiradi va uslubiy mahoratni namoyon etadi.

**“Tarix va adabiyot kesimida roman”** nomli uchinchi bobning *“Tarixiy haqiqat va badiiy talqin”* deb nomlangan birinchi faslida tarixiy asar yozilish jarayonida adibning hayot haqiqatini qanchalik teran, haqqoniy aks ettirishi badiiy asarning muhim xususiyati ekanligi haqida mulohaza yuritildi.

Asardagi badiiylikning tasviri, ya'ni yozuvchining tasavvuri o'quvchining tafakkur olamida jonlanadi, qayta shakl topadi. Shuning uchun ham asar qahramonlari har bir o'quvchida yaratilgan badiiy obrazga nisbatan turlicha tasavvur paydo qiladi. Yozuvchi ijodiy fantaziyada xayolga, badiiy to'qimaga qancha boy bo'lsa, u yaratgan obrazlar shu qadar haqqoniy, hayotiy, mukammal chiqadi. Demak, badiiy to'qima qahramon obrazini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yozuvchi Baxtiyor Abdug'afur badiiy obraz yaratishda xalq og'zaki ijodida uchraydigan qahramonlar Alpomish, Kuntug'mish, Go'ro'g'li, Barchinoy singari epik qahramonlarga monand tarzda tarixiy shaxslar siymosini tasvirlaydi. Bu, birinchidan, Abdulla Qodiriy adabiy maktabi ta'siri, ikkinchidan, ijodkorning estetik ideali asosida vujudga kelgan bo'lsa, yana bir e'tiborli jihati, munshiy Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning *“Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mengburni”* asaridan ilhomlanganligida yaqqol ko'rinadi. Tarixiy fakt va badiiylik, shuningdek, xalq og'zaki ijodi tasviriy an'analari uyg'un holda barcha tarixiy va to'qima obrazlar bilan *“Sulton Jaloliddin Manguberdi”* romanida o'z aksini topgan.

Sulton Jaloliddin Manguberdi obrazining hayotiylik va badiiylik qirralari Baxtiyor Abdug'afur asarida to'la namoyon bo'ladi. Chunki: *“Tarixiy romanning bitta xususiyati bor: bu ham bo'lsa tarixiy voqea bilan roman o'rtasida muvozanatni saqlash va kitobxonni romandagi voqealarga ishonтира olishdir. Yozuvchi mahorati bilan o'quvchi ishonchi uyg'unlashgan nuqta adabiyotning yutug'i sanaladi”*<sup>16</sup>, deya baholash mumkin. Yozuvchi Jaloliddin siymosining turfa xarakterini tasvirlash maqsadida to'qima obrazlarni ham alohida shakllantiradi. Shunday obrazlardan biri Salohiddin obrazidir. Folklor dostonlarida *“keng yelkali”* alplar haqida kuylansa, Salohiddinning *“bug'doyrang chehrasi”*<sup>17</sup> an-Nasaviy *“Siyrat”*ining tasvir qolipidan foydalangan holda roman bosh qahramoni Jaloliddin obraziga hamohang tarzda gavdalantiriladi. Ya'ni yozuvchi obrazning atvorini

---

<sup>16</sup> Rahmonov N. Tarixdan oziqlanib. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2019. – B. 15.

<sup>17</sup> Baxtiyor Abdug'afur. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024. – B. 7.

ifodalashda barcha ijobiy obrazlarni asar bosh qahramoniga uyg'un tarzda tasvirlaydi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Jaloliddin Manguberdi haqidagi tarixiy mavzuda yozilgan romanlarda o'zbek, qozoq, turkman, qirg'iz, qoraqalpoq, uyg'ur va boshqa ko'plab turkiy xalqlar alohidalik kasb qilmaydi. Tarixiy asarlarda qahramonning badiiy ustunligi shundaki, u o'z davri zamondoshlariga tanbeh berish fonida bugungi avlodlarga o'tmishdan saboq va murojaat yo'llaydi. Ijodkor bu orqali uning bosh obraz sifatidagi mavqeyini dalillayadi.

Muallif bu fikrlarni asar davomida turli variantlarda qayta keltirib, milliy birlik va birdamlikning ko'plab muammolar yechimi ekanligini badiiy uslub bilan ta'kidlaydi. Ushbu takroriy yondashuv asarning g'oyaviy asosini mustahkamlaydi va o'quvchining e'tiborini tarixiy saboqlarning dolzarbligiga qaratadi. Shu tariqa muallif qahramonlarning so'zlari orqali o'z uslubiy mahoratini ko'rsatib, badiiy va tarixiy mazmunning uyg'unligini ta'minlaydi.

“Sulton Jaloliddin Manguberdi” romani ekspozitsiyasidayoq to'qima obrazlardan bo'lgan Salohiddin va Nuri bibi obrazlari bilan romantik epizodlarga o'rin ajratiladi. Asar boshidayoq tasvirlangan “yovqur jangchi”, “ko'rkam o'g'lon”<sup>18</sup> yigit va “chiroyli charos ko'z”<sup>19</sup> qizning taqdiri o'quvchini mutolaaga yetaklaydi. Romandagi sevgi-muhabbat epizodlari faqat janr talabidan kelib chiqib emas, balki yozuvchi ijodiy niyatini ham anglatadi. Bunday ikki to'qima obraz bosh qahramonning oddiy voqealarga munosabatini yoritish va roman yakunigacha tarixiy obrazni to'liq gavdalantirish maqsadida turli xil voqealarga aralashadi. Chunki to'qima obrazlar tarixiy faktdan xoli bo'lib, ular ijodkor erkinligini ta'minlovchi asar epizodlarida mustaqil harakat qila oladigan harakatchan qatnashuvchidir. Umuman olganda, to'qima obraz ijodkorning “ko'zi”, “qulog'i”, o'rni kelsa, “tili” vazifasini bajaradi. Demak, romandagi to'qima ijobiy qahramon ayni yozuvchining shaxsiga yaqin turadi.

Romanning 9-bobi “Gurganch” deb nomlanib, “undagi Takash va Elarslon hukmfarmonlik qilgan saroy... Shom qorasida huvillab qolayozgan ko'chaning tinchini otlarning asabiy pishqirishlari, aravakashlarning ovozlari buzdi. Usta Jamolning uyini aniq bilib olganidan Salohiddin uning uyini aniq topdi. U otidan tushib, yong'oq daraxti ostidagi eshikni taqqilatdi”<sup>20</sup> voqeasi hikoya qilinadi bu epizodning qiziq tomoni shundaki, tasvirlanayotgan hudud, ya'ni Gurganch (ushbu davrda Xorazm davlatiga, hozirda kunda esa Turkmanistonga tegishli hudud) vohasi azal-azaldan qum ustida joylashgan va bu hududda tabiiy ravishda yong'oq daraxti o'smaydi. Lekin yozuvchining “yong'oq daraxti ostidagi eshikni taqqilatdi” kabi muallif tilidan gapirilishida reallikni chetlab o'tish, tasvirlanayotgan hududning tabiiy xususiyatlarini inobatga olmaslik kuzatiladi.

Zamonaviy yozuvchilar, ayniqsa, tarixiy roman yozishda mayda detallarga ham jiddiy e'tibor bilan yondashmasa, asarning badiiy qimmatini tushirib yuborishi va realistik janrning qonun-qoidalariga putur yetkazishi mumkin.

---

<sup>18</sup> Baxtiyor Abdug'afur. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024. – B. 8.

<sup>19</sup> O'sha asar. – B. 14.

<sup>20</sup> O'sha asar. – B. 41.

Umuman olganda, Jaloliddin Manguberdi murakkab tarixiy shaxs bo‘lib, uning xarakteri nafaqat tarixiy manbalarda, balki badiiy asarlarda ham murakkab va ko‘p qirrali obraz sifatida tasvirlangan. Tarixiy fakt va badiiy asarlardagi qarama-qarshiliklarning o‘ziy oq uning ruhiy olami cheksizligini tasdiqlaydi. Bir ijodkor Jaloliddin obrazining ichki tomonini yoritgan bo‘lsa, ikkinchisi uning boshqa qirralarini ochib berishga intilgan, ammo bu jarayon o‘zining izchilligi bilan ajralib turadi.

Bobning *“Tarixiy romanlarda fakt va badiiy to‘qima”* nomli ikkinchi faslida tarixiy davrning haqqoniy tasviri va badiiy to‘qima uyg‘unligi, tarixiy faktlarni ijodiy fantaziya orqali badiiylashtirish mahorati haqida so‘z yuritiladi.

Romanchilikda fakt va fantaziyaning o‘zaro uyg‘unligi, asarning badiiyat olamida tutgan o‘rni va muallifning ijodiy yondashuvi adabiy-estetik tajribalarni boyitadi, shuningdek, tarixni badiiy idrok qilishda yangidan yangi yondashuvlarni yuzaga keltiradi. Badiiy to‘qima – “yozuvchining ijodiy tasavvur va taxayyuli mahsuli, voqelikda real asosi yoki to‘liq o‘xshashi mavjud bo‘lmagan badiiy obrazlar, hayotiy holatlar, voqealar va shu kabilarni yaratishda namoyon bo‘luvchi badiiy ijodning muhim komponenti”<sup>21</sup> sanaladi.

Bugungi o‘zbek tarixiy romanchiligi rivojlanish bosqichida bo‘lib, unda ijodkorning milliy va estetik idealni shakllantirishdagi yutuqlari bilan birga hali izlanishni talab qiladigan jihatlari ham mavjud. Ko‘plab tarixiy mavzudagi romanlarda tarixiylik va badiiylik birlashib bir butunlikni tashkil qiladi. Biroq ba‘zan bu muvozanat buzilib, “tarixiylik nuqtayi nazaridan yozuvchi haq, lekin badiiyat nuqtayi nazaridan unga qo‘shilish qiyin”<sup>22</sup> bo‘lishi mumkin. Bunday asarlarda yozuvchi tarixiy faktlarni badiiy to‘qima bilan birlashtirib, ularni o‘quvchiga qiziqarli va izchil tarzda yetkazishni maqsad qilishi lozim. Bu esa tarixiylik va badiiylik o‘rtasidagi muvozanatni saqlashni talab qiladi.

Tarixiy fakt va ijodkor fantaziyasi asosida yaratilgan badiiy obraz, o‘z navbatida, mazmun va shaklning o‘zaro mutanosibligi bilan ajralib turishi lozim. Badiiy obrazning estetik samaradorligi uning ichki mazmuni va tashqi ifodasi o‘rtasidagi uyg‘unlikka bog‘liqdir. Ijodkor tasavvuri tarixiy haqiqatni badiiy talqin orqali boyitishi va uni o‘quvchiga emotsional va intellektual jihatdan ta‘sirchan yetkazishi zarur.

Bunda tarixiy faktlar badiiy obrazni shakllantiruvchi tayanch nuqta sifatida qaraladi, ammo ijodkorning mahorati bu faktlarni fantaziyaga singdirib, obrazni ko‘proq umumlashgan, estetik va ma‘naviy mazmunga ega ifodaga aylantirishda namoyon bo‘ladi. Shu bois, badiiy obraz mazmunan shakl bilan uyg‘un bo‘lishi, o‘quvchida nafaqat estetik qoniqish, balki chuqur tarixiy idrok va falsafiy xulosa shakllantirishi muhim omildir.

Tarixiy materialning ijodiy qayta ishlanishi adibning estetik qarashlari, tarixiy haqiqatga munosabati va uning badiiy tasvirlardagi yondashuvini ifodalaydi. Erkin Samandar, Shahodat Ulug‘, Shahodat Isaxonova, Baxtiyor Abdug‘afur kabi

---

<sup>21</sup> Quronov, D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B. 341.

<sup>22</sup> Hamraqulov A. O‘zbek adabiyotida Mahmud Torobiy qo‘zg‘olonining badiiy talqini. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – B. 90.

ijodkorlar asarlarida tarixiy shaxslar obrazlarini yaratishda fakt va fantaziyaning nozik muvozanatini saqlagan holda, davr ehtiyojlariga javob beruvchi badiiy-estetik yondashuvni amalda qoʻllagan. Ularning tarixiy shaxslar hayoti va faoliyatiga murojaat qilishi, aslida, istiqloq davri oʻzbek adabiyotida milliy oʻzlikni anglash, tarixiy merosni qayta kashf etish va uni yangi badiiy shaklda talqin qilishga boʻlgan talab bilan uzviy bogʻliq boʻlib, bu hol ijodkorlarni fakt va fantaziyani oʻzaro uygʻunlashtirish orqali badiiy-estetik jihatdan yuksak asarlar yaratishga undagan. Shuningdek, ayni davr ehtiyoji ijodkorlarni ham shakllantirgan. Ushbu asarlar tarixiy voqelikni badiylashtirish orqali nafaqat tarixiy faktlarni jonlantirishga, balki milliy maʼnaviyat va qadriyatlarni targʻib qilishga zamin yaratdi.

Jaloliddin Manguberdi obrazi bosh qahramon sifatida tasvirlangan romanlar dastlabki davrda kichik hajmdagi asarlarni tashkil qilgan boʻlsa, bugungi kunga kelib janr koʻlami kengaygan, yaʼni roman-dilogiyalarni tashkil qilib kelmoqda. Yuqorida sanab oʻtilgan barcha romanlarda Jaloliddin Manguberdi obrazini badiiy tasvirlashda anʼanaga aylanib ulgurgan tomonlarni kuzatish mumkin. Masalan, Soburxon epizodi deyarli shu mavzudagi barcha romanlarda keng yoritilib, bu hikoya Turkon Xotun obrazidagi shafqatsizlikning timsoliga aylanib borgan. Uning deyarli xorazmshohlar mavzusidagi barcha asarlarga kiritilishining sababi ham tarixiy manbalarda mavjudligidir. Shuningdek, Jaloliddin va Alouddin Muhammad, Jaloliddin va Turkon Xotun, Jaloliddin va Xonsulton, Jaloliddin va Chingizxon, Jaloliddin va Xalifa munosabatlarida bosh qahramon sanalgan Jaloliddin Manguberdi obrazining turli qirralari ochib berilgan. Bu badiiy tasvirlarning asarlarga atay kiritilishi negizida manba yotadi. Shu bilan birga, bosh qahramonning turli qirralarini ochib berish uchun badiiy ehtiyoj sifatida ham tarixiy manbalar ijodkor fantaziyasi orqali qayta-qayta jonlanaveradi. Bunda Jaloliddin va Turkon Xotun toʻqnashuvida Jaloliddinning birlikni saqlashga intilishi, oʻz yaqinlariga kuyinish sifatleri; Jaloliddin va Xonsulton munosabatida akaning singilga mehribonchiligi, or-nomus sifatleri; Jaloliddin va Muhammad Xorazmshoh munosabatida otaga boʻlgan sharqona ehtiram; Jaloliddin va Chingizxon munosabatida dushmanga nafrat va vatan dushmani bilan hech qachon murosaga bormaslik, ayovsiz kurash sifatleri; Jaloliddin va Xalifa, Alouddin Kaykubod I bilan munosabatlarida esa nafaqat turkiy xalqlar, balki butun musulmon ahlini birlikka chorlash sifatlerini badiiy yoʻsinda obrazlantirish uchun tarixiy realistik roman janri ehtiyoji boʻlib kelgan.

Jaloliddin Manguberdi obrazini yaratishda beshta roman mualliflarining yondashuvlari oʻziga xoslikka ega boʻlsa-da, ular orasida umumiylik sezilarli darajada koʻrinadi. Bu umumiylik, avvalo, ijodkorlarning bir xil asosiy manbalarga tayanishi va obrazlarga nisbatan anʼanaviy yondashuvlarning davom ettirilishidan kelib chiqadi. Jaloliddin Manguberdi obrazida ijtimoiy ideal tushunchasi muhim oʻrin tutadi. Yozuvchilar uni nafaqat oʻtmish qahramoni, balki bugungi kun millat iftixori, jasorat timsoli sifatida tasvirlashga intilganlar. Ularning badiiy tasvirida Jaloliddinning shaxsiy fazilatleri – mardlik, adolatparvarlik, qahramonlik – oʻz xalqining orzu-umidlarini ifodalaydigan ideal obraz sifatida gavdalanadi. Shu tariqa, Jaloliddin Manguberdi oʻz davrining ijtimoiy va siyosiy talablariga mos

ravishda, yozuvchilar tomonidan ma'naviy-ijtimoiy qadriyatlarni aks ettiruvchi badiiy obrazga aylantirilgan. Alouddin Muhammad obrazida esa uchta tarixiy xato uning halokati sababi sifatida tasvirlanadi: Majiddiddin Bag'dodiy – davlatning ichki nizolarini kuchaytirgan shaxs sifatida; O'tror fojiasi – mo'g'ullarning bosqiniga sabab bo'lgan voqea; yurtdan qochish – podshohning xalqni himoyasiz qoldirishi va davlatning tanazzuli ramzi sifatida tushunish mumkin.

Bugungi o'zbek romanchiligida tarixiy mavzudagi asarlar ko'pchilikni tashkil qiladi, bu jarayon yildan yilga oshib borayotganligini yuqorida Jaloliddin Manguberdi obraziga bag'ishlangan romanlardan ham ko'rish mumkin. Bu o'rinda akademik N.Karimovning quyidagi fikrlari asoslidir: "Agar bugungi adabiy jarayonga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda tarixiy mavzuning ustuvorlik qilayotganini sezish qiyin emas. Mustaqillik davri adabiyotining bosh qahramonlaridan biri sifatida tarixiy shaxslarning tanlanishi qonuniy jarayon"<sup>23</sup>.

E'tiborlisi, hatto mo'g'ullar homiyligida yozilgan tarixiy asarlarda ham Jaloliddin haqida qalam tebratgan muarrixlar uni qattiq tanqid qilib, qoralashga urinadi. Shunga qaramay, ijod qonuniyatiga ko'ra, bu tanqidlar orasida uning qahramonliklarini e'tirof etishga majbur bo'lishadi. Bu holat qiziq paradoksni yuzaga keltiradi: Jaloliddin siymosi tarixiy yoki badiiy asar bo'lishidan qat'i nazar, muallifni o'ziga rom etib, uni ixtiyorsiz ravishda qahramonlik sifatlarini ochib berishga yetaklaydi.

Bu jarayon tarixchi va adib ijodida birday kuzatiladi. Har ikki holda Jaloliddin Manguberding murakkab shaxsiyati va qahramonlik jihatlari muarrix va adiblarni o'ziga jalb qilib, tarixiy faktlar va badiiy tasvirlar o'rtasida izchil va o'ziga xos uyg'unlik shakllanishiga sabab bo'ladi. Ayni uyg'unlik uning tarixiy ahamiyatini va badiiy-estetik obraz sifatidagi doimiy o'rni va ta'sirini belgilab beradi.

Keyingi davr jahon adabiyoti va o'zbek adabiyotida aynan Jaloliddin Manguberdi obrazi aks etgan badiiy asarlarning ko'payib borayotganligining o'ziga xos sabablari mavjud.

Birinchidan tarixiy manbalarning ortib borayotganligi; Ikkinchidan o'zbek adabiyotiga istiqloqlarning ta'siri va jahon adabiy hayotida esa ijodiy erkinlikning har qachongidan yuksalganligi; Uchinchidan tarixiy shaxsga bo'lgan munosabatni o'zgartirish ehtiyoji, bunda o'tmishda noxolis tasvirlangan millat qahramonlariga qayta baho beriladi.

Umumiy jihat sifatida bu romanlarda Jaloliddin Manguberding siymosi va xarakterida vatanparvarlik g'oyalari, g'animlarga qarshi kurash va milliy manfaatlarini himoya qilish motivlari doimiy ravishda yetakchi mavqeni egallaydi.

## XULOSALAR

Tadqiqot doirasiga jalb etilgan istiqloqlar davri o'zbek romanlarida Jaloliddin Manguberdi obrazining badiiy talqinlari nuqtayi nazaridan o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

---

<sup>23</sup> Karimov N. Bugungi kunlar sururi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. gazetasi. 2000. № 7. – 3 B.

1. Tarixiy roman janrida faktlar va badiiy to‘qimani uyg‘unlashtirish mazkur janrning asosiy xususiyati bo‘lib, uning muvaffaqiyatini ta‘minlaydi. Yozuvchi ijodiy talqin orqali tarixiy davr va shaxslarni qadriyatlar bilan bog‘laydi. O‘zbek tarixiy romanchiligi xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyot an‘analariga asoslanadi. Abdulla Qodiriy, Oybek kabi ijodkorlarning asarlari tarixiy roman janrining rivojlanishida muhim bosqichlarni belgilab berganligi ta‘kidlandi. Tadqiqotimizda tarixiy roman janri o‘tmish, bugun va kelajak orasidagi badiiy ko‘prik vazifasini bajarganligi ochib berildi.

2. Jaloliddin Manguberdi obrazining ilk talqinlari tarixiy haqiqatga asoslanib, badiiy yondashuv bilan uyg‘unlashtirilgan. Bu talqinlar tarixiy voqealar asosida qahramonning shaxsiy fazilatlarini va liderlik qobiliyatini yoritib, uni milliy qahramon darajasiga ko‘targan. Bu obraz millatning mustaqillik intilishlarini aks ettiruvchi badiiy va tarixiy ramz sifatida shakllanganligi ochib berildi.

3. Tarixiy manbalarda Jaloliddin obrazining ilk badiiy talqinlarida asosiy ilhom manbayi bo‘lganligi, ularning haqqoniyligi Jaloliddin siymosini adolatli, qat‘iyatli va vatanparvar qahramon sifatida yoritishda nazariy asos bo‘lib xizmat qilganligi tahlil qilindi. Jaloliddin Manguberdi obrazining badiiy genezisi keyingi adabiy asarlar uchun nazariy va ijodiy poydevor bo‘lib xizmat qilganligi, dastlabki talqinlarda uning milliy va universal qahramon sifatidagi timsoli shakllanib, keyinchalik bu obraz xalqni ruhlantiruvchi, tarixiy xotirani mustahkamlovchi, badiiy-estetik merosga aylanganligi ochiqlandi.

4. Istiqloq davri tarixiy romanchiligida tarixiy shaxslarning obrazli xarakterini tasvirlash borasida sezilarli yangilanishlar va ijodiy yondashuvlar kuzatilmoqda. Xususan, Erkin Samandar asarlari tarixiy realizmga asoslangan bo‘lib, ularda qahramonlarning ichki ziddiyatlarini chuqur tadqiq etish va ularning tashqi dunyo bilan munosabatlarini o‘zaro aloqadorlikda ko‘rsatishga katta e‘tibor qaratiladi. Jaloliddin Manguberdi obrazining yoritilishida esa vatanparvarlik, fidoyilik va mas‘uliyat kabi xislatlar alohida ajralib turadi. Bu jihatlar nafaqat qahramonning ichki olamida aks ettirilgan, balki bosqinchi mo‘g‘ullar tomonidan ham e‘tirof etilgan fazilatlar sifatida taqdim etilgan. Istiqloq davri tarixiy romanlari nafaqat badiiy yuksaklikka erishmoqda, balki milliy tarixni qayta anglash va uni ilmiy-adabiy yo‘sinda talqin etishning muhim bir shakliga aylanmoqda.

5. Shahodat Isaxonova asarlarida tarixiy qahramonlarining badiiy obrazini ularning dialoglari, nutqlari orqali ochib berilishi, har bir nutq personajning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ifodalashi, ularni individuallashtiruvchi vosita sifatida xizmat qilishi, dialoglarning dramatik ta‘siri asar g‘oyasini kuchaytirishi, uslubiy mahoratni namoyon etishi va tarixiy romanchilikda badiiylik va tarixiy muvofiqlikni uyg‘unlashtirishga xizmat qilishi aniqlandi.

6. Tarixiy romanlarda tarixiy fakt va badiiy to‘qima o‘rtasidagi mutanosiblikni saqlash muhim sanalishi, Jaloliddin Manguberdi badiiy obrazini yaratishda faktlarni ijodiy talqin qilib, qahramonning milliy va ijtimoiy ideallarini o‘quvchiga ta‘sirchan yetkazishi, Jaloliddin Manguberdi obrazi nafaqat badiiy adabiyotda, balki ilmiy-tarixiy manbalarda ham g‘oyat murakkab va ko‘p qirrali shaxs sifatida gavdalanishi ishda o‘z tasdig‘ini topdi.

7. Jaloliddin Manguberdi hayotini tasvirlashga bag'ishlangan tarixiy asarlarda syujet qurilishi, konfliktning barcha turlaridan foydalanish, badiiy detalning o'rni va alohida ma'no anglatishi, asar kompozitsiyasini yaratishda mavjud tarixiy romanlar tajribasidan keng foydalanganligi, badiiylik ustunlik qilishi, tarixiy fakt buzilmagan holda badiiylikka erishilganligi tahlillar jarayonida namoyon bo'ldi.

8. Jaloliddin Manguberdi obrazi nafaqat tarixiy, balki badiiy talqinlarda ham murakkab va ko'p qirrali shaxs sifatida gavdalanadi. Tarixiy asarlarda fakt va to'qimaning uyg'unlashuvi ba'zan ziddiyatli holatlarni yuzaga kelishi, ayniqsa, Turkon Xotun va Alouddin Muhammad obrazlarining barcha jihatlari aniq ko'rsatilgani, ularning tarixiy qiyofasini chegaralab qo'yganligi, shu bilan birga, bu obrazlar Jaloliddinning qahramonliklarini yanada yorqinroq ko'rsatishga xizmat qilganligi ko'rsatib berildi.

9. Jaloliddin Manguberdi obrazi xalqning jasorat, vatanparvarlik va milliy uyg'unish ramzi sifatida aks ettirilgan. Bunday yondashuv orqali o'zbek romanchiligida milliy g'urur va tarixiy xotirani tiklashga bo'lgan intilish ko'zga tashlanishi, ijodkorlar Jaloliddin Manguberdi va boshqa qahramonlarning obrazlarini yaratishda tarixiy manbalar, badiiy to'qima hamda estetik yondashuvni integratsiya qilganligi ishda o'z aksini topdi.

10. Jaloliddin Manguberdi obrazi epik, dramatik va lirik turdagi ko'plab janrlarda turli xil rakurslarda ko'rsatilganligi, ushbu tarixiy shaxs obrazining o'zbek adabiyotda muhim ahamiyatga ega ekanligi, har bir adabiy turda Jaloliddin obrazining turli xil qiyofalari chizilganligi, obraz yaratishda janr imkoniyatlari va badiiy ifoda vositalarining o'rni, turli xalqlar adabiyotida Jaloliddin obrazining aks ettirilishi ishda tizimli tadqiq etildi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES  
DSc.02/30.12. 2019.Fil.46.01 AT INSTITUTE OF UZBEK LANGUAGE,  
LITERATURE AND FOLKLORE**

---

**INSTITUTE OF UZBEK LANGUAGE, LITERATURE AND FOLKLORE**

**KENJAYEV FARXOD IKRAM O‘G‘LI**

**LITERARY INTERPRETATIONS OF THE IMAGE OF  
JALOLIDDIN MANGUBERDI IN UZBEK NOVELS OF  
THE INDEPENDENCE PERIOD**

**10.00.02 – Uzbek literature  
(philological sciences)**

**DISSERTATION ABSTRACT OF DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)  
ON PHILOLOGICAL SCIENCES**

**Tashkent – 2025**

**The theme of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered in the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under the number B2022.2.PhD/Fil2428.**

The doctoral thesis was carried out at Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore

The abstract of the thesis in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) is logged on the web-sites of the Scientific Council (www.tai.uz) and the information-educational portal www.ziyonet.uz.

**Scientific advisor:** **Hamdamov Ulugbek Abduvakhobovich**  
Doctor of Philological sciences, professor

**Official opponents:** **Jabborov Nurboy Abdulhakimovich**  
Doctor of Philological sciences, professor


**Hamraqulov A'zamjon Shermuxammadovich**  
Candidate of Philological Sciences, Associate  
Professor

**Leading organization:** **Tashkent State Pedagogical University**

The defense of the dissertation will be held at the meeting of Scientific Council DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 on awarding scientific degrees at the Institute of Uzbek language, Literature and Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan on "23" may 2025, at 4:00 pm (Address: 100060, Tashkent city, Shakhrisabz passage, 5. Tel.: (99871) 233-36-50; 239-18-92; fax: (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz).

The dissertation can be viewed at the Main Library of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan (registered under number \_\_\_\_\_). Address: 100100, Tashkent city, Ziyolilar street, 13. Tel.: (99871) 262-74-58.

The abstract of the dissertation was distributed on "7" may 2025.  
(Registered record number 6 dated "6" may, 2025).



**B. Tukhliev**  
Chairman of the Scientific Council  
awarding Scientific degrees,  
Doctor of sciences on Philological, Professor

**R. Barakaev**  
Scientific Secretary of Scientific Council  
on awarding scientific degrees,  
Candidate of Philological Sciences, Professor

**K.Y. Kahramonov**  
The Vice-Chairman of the academic Seminar under  
the scientific council on awarding scientific degrees,  
Doctor of sciences on Philological, Professor

## INTRODUCTION (the abstract of the (PhD) dissertation)

**Topicality and necessity of the thesis.** In the field of world literary studies, creating scientific research on the poetics of novels and exploring problems related to the analysis of literary works through new methods are gaining increasing importance. In particular, the interpretation of historical novels, historical figures, and reality in fiction, as well as the reflection of issues connected to the literary process, are being illuminated in a distinctive manner. Traditionally, the historical and literary interpretation of historical figures, national heroes who fought for the interests of the homeland, encyclopedic scholars, and saints has been consistently evaluated as a literary and aesthetic phenomenon. Studying the interpretations of historical figures' images in fiction and examining their formal and substantive aspects are among the pressing issues in literary criticism.

In world literary studies, approaching the literary aspects of novels as a unique literary and aesthetic phenomenon and revealing the creative mastery of the author are considered important tasks in the field of philology. Depicting the image of a historical figure in harmony with historical events and literary fiction, as well as portraying their spiritual and psychological world, requires great skill from the writer. The most significant aspect here is the increased attention to studying the problems of character, imagery, and style in the poetics of historical works on a broad scale. From this perspective, examining the literary interpretations of historical figures' images holds particular importance.

Modern Uzbek literature of the independence period produced great novels about historical figures such as Mahmud Tarobiy, Abu Rayhon Beruniy, Imom Moturidiy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulugbek, Gavharshodbegim, Alisher Navoi, Zahiriddin Muhammad Babur, Humayun, Muhammad Akbarshoh. While the modern literary interpretation of historical figures and events in the literature of the Soviet era was limited and created under social pressure from the point of view of the one-sided Soviet ideology, new, objective literary interpretations emerged in the literature of the independence period. So, "It is a fair truth to say that deeply studying the life and work of our patriotic and courageous ancestors, such as the great commander Jaloliddin Manguberdi, and widely promoting it among our people, especially among the youth, is our great duty. Of course, we should all engage in this effort, and at the same time, we should support the scientific and creative work carried out by our dedicated scholars and writers in this regard, encouraging them to create new works"<sup>1</sup>. Historical novels play a significant role in shaping patriotism, national pride, and the spirit of nationalism among young people. In this respect, one of the pressing issues in our literary studies is the examination of literary interpretations of the image of commander Jaloliddin Manguberdi, who fought against the Mongol invaders, and the portrayal of this historical figure in novels created during the period of independence.

---

<sup>1</sup> Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston. www.yuz.uz 29.08.2022.

Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan PF-6108 dated 6 November 2021 “On measures for development of the sphere of education and science in the new period of development of Uzbekistan”, PF-60 dated 28 January 2022 “On development strategy of the new Uzbekistan for 2022-2026”, PF-5847 dated 8 October 2019 “On approval of the concept for development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030”. PF-5847 dated 8 October 2019 “On approval of the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030”; This dissertation research will, to a certain extent, serve the implementation of the tasks specified in the resolutions of the Academy of Sciences No. PQ-2789 dated 17 February 2017 “On measures to further improve the activities of the Academy of Sciences, the organization, management and financing of scientific research work”, No. PQ-2909 dated 20 April 2017 “On measures to further develop the higher education system”, No. PQ-3271 dated 13 September 2017 “On a comprehensive programme of measures to develop the system of publishing and distribution of book products, increase and promote the culture of reading and reading”, as well as other regulatory legal documents related to this activity.

**Relevant research priority areas of science and developing technology of the Republic.** This research was conducted in accordance with the priority direction I of the Republic's science and technology development: “Formation of a system of innovative ideas and ways to implement them in the social, economic, cultural, spiritual, and educational development of an information society and democratic state”.

**The extent of study of the problem.** Although the image of Jaloliddin Manguberdi plays a special role in revealing the ideological and literary possibilities of the historical novel genre in modern Uzbek literature, the unique position of this character, the spiritual world expressed through the literary skills of the creators, and its analysis from the perspective of artistry, historicity, and national ideology have not yet been the subject of special research in Uzbek literary studies.

In world literary studies, issues related to historical novels and the portrayal of historical figures have been examined by scholars such as Walter Scott, György Lukács, Avrom Fleishman, Harry E. Shaw, Jurji Zaydan, Mikhail Bakhtin, Jerome de Groot, and Richard Maxwell<sup>2</sup>.

In Uzbek literary studies, the characteristics of historical novels and historical images have been widely studied in the studies of B.Fayziyev, O.Ikramov, S.Shirinov, N.Xudoyberganov, P.Alimov, D.Quronov, A.Rahimov, X.Lutfiddinova, D.Turayev, H.Karimov, A.Nosirov, S.Tulaganova, Sh.Isayeva,

---

<sup>2</sup> Walter Scott. *Waverley*. – Boston. Estes and Lauriat, 1893. – 512 p.; György Lukács. *The Historical Novel*. – London: University of Nebraska Press, 1893. – 363 p.; Erich Auerbach. *Time, History, and Literature*. – New Jersey: Princeton University Press, 2013 – 336 p.; Avrom Fleishman. *The English Historical Novel*. – London: The Johns Hopkins Press, 1971 – 363 p.; Harry E. Shaw. *The Forms of Historical Fiction*. – London: Cornell University Press, 1983 – 254 p.; Jurji Zaydan. *Tarikh al-Tamaddun al-Islami. Dar al-Hilal, Dar al-Hilal, Beirut 1967 pg*; Михаил Бахтин. *Проблемы творчества Достоевского. Алконост, 1994. – 243 с.*; Jerome de Groot. *The Historical Novel*. New York: Roudledge Press, 2009. – 208 p.; Richard Maxwell. *The Historical Novel in Europe 1650-1950*. Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 323 p.

M.Pirnazarova, M.Hamrayeva, A.Hamraqulov, Sh.Doniyarova, G.Murodov, B.Turayeva, F.Xajiyeva, I.Yakubov, Sh.Davronova, A.Axmedova, A.Allambergenov, M.Omanova, E.Jumayev, A.Uzoqov, N.Matmusayeva<sup>3</sup>.

Furthermore, it can be observed that scholars such as G.Karimov, G.Murodov, M.Sultonova, A.Kattabekov, and A.Zayniddinova have analyzed historical novels and historical figures<sup>4</sup>, while the image of Jaloliddin Manguberdi has been specifically examined in scholarly articles by literary critics like E.Samandarov, M.Vali, M.Urazboyeva, and F.Ikramova<sup>5</sup>.

